Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti;
E-mail: shaxloxontursinbayeva@gmail.com; ORCID: 0009-0003-2369-3962)

TARIXIY PROZA MATNIDA LINGVOMADANIY LAKUNA HODISASI VA UNING NAZARIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada til nazariyasi va lingvokultrologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan lingvomadaniy lakuna (tushunchaviy bo‘shliqlar) fenomeni tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” epopeyasi matni olingan bo‘lib, undagi lakunalar tizimli-sistem asosda tahlil qilingan. Maqolada lakunalar to‘rtta asosiy lingvomadaniy maydonga (davlatchilik, harbiy san’at, etnografik va diniy-marosim) ajratilgan va ularning badiiy matn ichidagi semantik-pragmatik yuki hamda emotsional-uslubiy bo‘yog‘i ochib berilgan. Olingan natijalar jadval ko‘rinishida shakllantirilgan va til nazariyasi uchun xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *til nazariyasi, badiiy matn, lingvomadaniy lakuna, lisoniy dunyo manzarasi, konnotativ bo‘yoq.*

Турсинбаева Шахлохон Алимбаевна (ТГУУЯЛ имени Алишера Навои, докторант;
E-mail: shaxloxontursinbayeva@gmail.com; ORCID: 0009-0003-2369-3962)

ЯВЛЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ ЛАКУНЫ В ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРОЗЕ И ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. *В данной статье исследуется феномен лингвокультурной лакуны (концептуальных лакун), который является одной из актуальных проблем теории языка и лингвокультурологии. Объектом исследования послужит текст эпопеи Мухаммада Али «Великое королевство», в котором на системно-структурной основе проанализированы лакуны. В статье лакуны разделены на четыре основных лингвокультурных поля (государственность, военное искусство, этнографическое и религиозно-обрядовое). Также раскрыты их семантико-прагматическая нагрузка и эмоционально-стилистическая окраска внутри художественного текста. Полученные результаты оформлены в виде таблицы, и сформулированы выводы для теории языка.*

Ключевые слова: *теория языка, художественный текст, лингвокультурная лакуна, языковая картина мира, коннотативная окраска.*

Tursinbayeva Shakhlokhon Alimbayevna (TSUULL named after Alisher Navoiy PhD Student;
Email: shaxloxontursinbayeva@gmail.com; ORCID: 0009-0003-2369-3962)

THE PHENOMENON OF LINGUACULTURAL LACUNA IN HISTORICAL PROSE FICTION AND ITS THEORETICAL INTERPRETATION

Annotation. *This article explores the phenomenon of linguacultural lacunae (conceptual gaps), which is one of the pressing issues in linguistic theory and linguaculturology. The text of Muhammad Ali's epic novel "The Great Kingdom" serves as the object of research, where lacunae are analyzed on a systemic-structural basis. In the article, the lacunae are categorized into four main linguacultural fields (statehood, military art, ethnographic, and religious-ritual). Furthermore, their semantic-pragmatic function and emotional-stylistic coloring within the literary text are revealed. The obtained results are presented in a tabular format, and conclusions for linguistic theory are formulated.*

Keywords: *linguistic theory, literary text, linguacultural lacuna, linguistic picture of the world, connotative coloring.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy tilshunoslik kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy paradigmalarning integratsiyalashuvi natijasida yangi nazariy prinsiplarni shakllantirmoqda. Tilshunoslikda lisoniy birliklarni faqat grammatik yoki semantik sathda o‘rganish o‘rnini ularni muayyan bir xalqning milliy dunyo manzarasi, etnik tafakkuri va madaniy kodi bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etish tamoyili egalladi.

Ma’lumki, har bir millatning o‘ziga xos yashash tarzi, tarixiy o‘tmishi, falsafiy-diniy qarashlari uning lisoniy tizimida o‘z in’ikosini topadi. Ushbu lisoniy in’ikosning eng murakkab va o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri til nazariyasida lakunallik (lisoniy va tushunchaviy bo‘shliqlar) fenomendir. Lingvomadaniy lakunalar bir xalq tafakkuridagi o‘ziga xos tushuncha yoki realiyaning boshqa til va madaniyat vakillari uchun mutloq yoki nisbiy noma’lumligini ifodalovchi universal hodisadir.

Tarixiy proza matnlarida lingvomadaniy lakunalarni o‘rganish til nazariyasi uchun favqulodda dolzarb ahamiyatga ega. Tarixiy romanlar nafaqat o‘tgan davr voqealarini badiiy qayta tiklaydi, balki o‘sha davr jamiyatining lisoniy qatlamini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ierarxiyasini va milliy mentalitetini lin-

gvistik etalon sifatida saqlab qoladi. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" [1;640-b.] epopeyasi Temuriylar davri davlatchiligi, harbiy san'ati, ijtimoiy va madaniy hayotini yorqin aks ettirgan yirik lisoniy manba hisoblanadi. Asar matnida bugungi kun o'zbek tili iste'moli uchun ham, jahon tillari madaniy tizimi uchun ham xarakterli bo'lgan o'ziga xos konseptual, etnografik va diskursiv lakunalar mavjud. Ushbu tushunchaviy bo'shliqlarni til nazariyasi va lingvokultrologiyaning integral paradigmalari doirasida tizimli o'rganish, qolaversa, ularning badiiy diskursiv jarayondagi semantik-pragmatik va matn shakllantiruvchi yukini ochib berish bugungi o'zbek matn lingvistikasi va milliy tafakkurning lisoniy dunyo manzarasini tadqiq etishda fundamental ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasi, frazeologiyasi yoki leksik-semantik xususiyatlari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, tarixiy prozada lingvomadaniy lakunalarni modellashtirish va ularning matndagi nazariy maqomini belgilash masalasi hamon ochiq qolmoqda. Xususan, Muhammad Ali nasridagi o'ziga xos tushunchaviy bo'shliqlarning matn ichidagi konnotativ mantiqlari tizimli tasnifga solinmagan. Bu esa til nazariyasida tarixiy diskurs matn strukturasi va undagi milliy dunyo manzarasini to'liq anglashda muayyan ilmiy bo'shliqni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi – Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romani matnidagi lingvomadaniy lakunalar tarkibini aniqlash hamda ularning matn tarkibidagi nazariy, semantik-pragmatik va estetik statusini belgilashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

–asar matnidan faqat muayyan tarixiy davr (Temuriylar davri) va milliy mentalitetga xos lingvomadaniy lakunalarni ajratib olish;

–ajratilgan birliklarning til nazariyasidagi lisoniy va etnomadaniy tabiatini aniqlash;

–lakunalarni mavzuviy-semantik jihatdan guruhlash va tasniflash;

–badiiy matn ichida lakunalarning qanday lingvomadaniy bo'yoq va funksiyaga ega ekanligini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romani matni, undagi badiiy diskurs parchalari belgilandi. Tadqiqot predmetini esa mazkur asar matnida aks etgan va til nazariyasi nuqtayi nazaridan o'ziga xos konnotativ yuk yuklangan lingvomadaniy lakunalar tashkil etadi.

Mazkur ishda tarixiy roman matnidagi lakunalar shunchaki arxaizm yoki tarixiy so'zlar (istorizmlar) sifatida emas, balki til nazariyasidagi milliy va madaniy kodlarni saqlovchi "tushunchaviy bo'shliqlar" sifatida o'rganiladi. Muhammad Ali ijodida qo'llangan o'ziga xos lakunalarning badiiy matn tarkibidagi estetik va semantik-pragmatik valentligi ochib beriladi hamda ularning til tizimidagi o'rni modellashtiriladi. Mazkur kichik tadqiqot tarixiy nasr matnidagi tushunchaviy bo'shliqlarni aniqlash orqali matn lingvistikasi va lingvokultrologiyaning ba'zi nazariy masalalariga aniqlik kiritadi. Ishning amaliy natijalari oliy o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishlarida maxsus kurslar tayyorlashda hamda badiiy matn tahlili jarayonida yordamchi manba bo'lib xizmat qila oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Til nazariyasida va uning zamonaviy tarmoqlari bo'lmish lingvokultrologiya hamda kognitiv tilshunoslikda lakuna fenomeni madaniyatlararo muloqot va lisoniy dunyo manzarasi muammolarining markazida turadi. "Lakuna" termini, dastlab, tilshunoslikka fransuz olimlari J.Munen va J.Vinay hamda J.Darbelnelar tomonidan qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik metodologiyasi doirasida olib kirilgan bo'lib, unda bir til tizimidagi leksik birlikning ikkinchi bir til tizimida ekvivalentga ega emasligi tushunilgan [2;45–48-b.]. Dastlabki tadqiqotlarda ushbu hodisa faqat tarjima muammolari yoki leksik sathdagi "bo'shliqlar" sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik, etnopsixolingvistika va til nazariyasi doirasida uning qamrovi keskin kengaydi.

Til nazariyasi va etnopsixolingvistikasida lakuna fenomenining fundamental nazariy prinsiplari rus tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan tizimlashtirilgan. Xususan, Y.Sorokin va I.Markovina o'zlarining madaniyatlararo muloqot va matn idroki muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarida lakunani shunchaki leksik ekvivalentning yo'qligi emas, balki ikki milliy madaniyat to'qnashuvida yuzaga chiquvchi o'ziga xos tushunchaviy va psixologik tafovutlar tizimi sifatida talqin etadilar [3;87–91-b.]. Olimlar tasnifiga ko'ra, matnda obyektiv (real borliqdagi obyektning mavjud emasligi) va subyektiv (tushunchaning etnik ongda idrok etilish xususiyatlari) lakunalar farqlanib, ular badiiy diskursda matn osti ma'nolarini tashiydigan madaniy-kognitiv kod vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, V.Kostomarov hamda Y.Sterning kabi tadqiqotchilarning ishlarida lakuna hodisasi lisoniy dunyo manzarasi va milliy mentalitet munosabatlari kontekstida o'rganilgan. Ularning qarashlariga ko'ra, har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashi va yashash tarzi tilda muayyan "bo'shliqlar" yoki tushunchaviy lakunalarni yuzaga keltirishi tabiiy qonuniyatdir. Bu nazariy yondashuvlar tarixiy asar matnidagi

davriy va etnik o‘ziga xosliklarni hamda Muhammad Ali nasridagi lingvomadaniy lakunalarning funksional-semantik tabiatini tizimli baholashda metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida matn tahlili va milliy lisoniy tizim o‘rtasidagi aloqadorlik, garchi bevosita “lakuna” termini ishlatilmagan bo‘lsa-da, tizimli tilshunoslik asoschilari ishlarida fundamental poydevorga ega. Xususan, A.Nurmonov til va tafakkur munosabatini sistem yondashuv asosida tadqiq etib, lisoniy belgining etnik ong bilan bog‘liqlik qonuniyatlarini ko‘rsatgan [4;44–46-b.]. Sh.Rahmatullayev esa o‘zbek tili frazeologiyasining izohli lug‘atlarida milliy-madaniy xarakterdagi, o‘zga tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinishi imkonsiz bo‘lgan turg‘un birikmalarni semantik modellashtirish orqali o‘zbek lisoniy dunyo manzarasining frazeologik qatlamini tizimlashtirdi [5;18–22-b.].

O‘zbek tilshunosligida lingvokultrologik yo‘nalishning shakllanishi va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan professor N.Mahmudov til tizimidagi milliy bo‘yoqni, xalq madaniyatining so‘z xazinasida aks etishini badiiy matn tadqiqi jarayoni bilan uzviy bog‘laydi. Olim “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli dasturiy tadqiqotida til birliklarining antropotsentrik mohiyatini va ularning konnotativ tarkibidagi etnik-madaniy semalarni ajratib ko‘rsatgan bo‘lib, bu bevosita badiiy matn lakunalligini anglashning nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi [6;3–16-b.].

O‘zbek tilshunosligida lakunallik fenomenini bevosita maxsus ilmiy muammo sifatida tadqiq etish prof. D.Xudoyberganova nomi bilan bog‘liq. Tadqiqotchi o‘zining “Matnning antropotsentrik tadqiqi” monografiyasi hamda “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini” nomli doktorlik dissertatsiyasida lakunalarni kognitiv va madaniyatlararo muloqot paradigmasida atroflicha tahlil qildi. Olima til tizimidagi tushunchaviy bo‘shliqlarni shunchaki leksik ekvivalentning yo‘qligi emas, balki etnik tafakkurdagi o‘ziga xos konseptual tuzilmalarning (freym, skript) muayyan lisoniy kod bilan qoplanmaganligi sifatida talqin etadi va ularning matndagi lingvokulturologik xususiyatlarini tizimlashtiradi [7;112–115-b.].

O‘zbek tilshunosligida lakunallik hodisasi ko‘proq kognitiv tilshunoslik hamda chog‘ishtirma-tipologik planda (asosan, o‘zbek va g‘arb tillari qiyosida) o‘rganilgan bo‘lib, bu izlanishlarda asosan sinxron lisoniy material asos qilib olingan. Biroq lakuna tushunchasining diaxronik tabiatini, xususan, tarixiy proza doirasidagi ichki lisoniy dinamikasini tizimli-struktural tahlil etish masalasi e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Gap shundaki, tarixiy roman matnidagi lakunalar shunchaki lisoniy ekvivalentning yo‘qligini emas, balki muayyan bir ijtimoiy-tarixiy davr dunyo manzarasining matndagi badiiy in’ikosini tashkil qiladi. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matnidagi til qatlamining funksional-semantik xususiyatlari shu paytgacha lingvopoetik va stilistik jihatdan tahlil etilgan bo‘lsa-da, uning tarkibidagi milliy-madaniy kodlarni va davriy bo‘shliqlarni til nazariyasi prinsiplari asosida tizimlashtirish va tasnif etish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy vazifasini belgilaydi. Ishimizda tarixiy romandagi lacunalarni shunchaki alohida so‘zlar sifatida emas, balki til taraqqiyoti hamda milliy dunyo manzarasining o‘zaro aloqadorligi kontekstida o‘rganishni maqsad qildik. Bunda asosiy e’tibor matndagi lisoniy bo‘shliqlarni davriy va madaniy omillar bilan bog‘liq holda tizimli tahlil etishga qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Tarixiy asar matnida lingvomadaniy lacunallik hodisasini aniqlash hamda uning lisoniy tabiatini yoritish til nazariyasining tizimli-struktural tamoyillariga tayanadi. Mazkur tadqiqotda ilmiy obyektivlik, til va madaniyat yaxlitligi hamda badiiy diskurs qonuniyatlari asosiy uslubiy yo‘nalish qilib olindi. Tarixiy romandagi tushunchaviy bo‘shliqlarni shunchaki alohida leksik birliklar sifatida emas, balki matn qurilishini hamda uning milliy bo‘yog‘ini ta’minlovchi lingvistik kategoriya sifatida tadqiq etish maqsadida o‘zaro aloqador tahlil usullari majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy bazasini shakllantirish maqsadida Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani matnidan maqsadli ajratib olish usuli qo‘llanildi. Kuzatishlar natijasida o‘zbek milliy mentaliteti hamda Temuriylar davri hayotini aks ettiruvchi lingvomadaniy lakuna aniqlandi va ular mavzuviy yo‘nalishlari bo‘yicha tizimlashtirildi.

Ushbu empirik materialni ilmiy-nazariy jihatdan qayta ishlash uchun quyidagi lingvistik metodlar izchillik bilan tatbiq etildi:

–konseptual va konnotativ tahlil metodi. Bu metod yordamida ajratib olingan lakunalarning lug‘aviy va qomusiy ma’nolari o‘rtasidagi tafovutlar, shuningdek, ularning o‘zbek milliy tafakkuridagi o‘rni tahlil qilindi. Lakunaning badiiy matn ichida qanday konnotativ (emotsional-bo‘yoqdor, baholovchi, uslubiy) yuk tashishi hamda uning tarkibidagi milliy-madaniy kod qanday semantik struktura hosil qilishi aniqlandi;

–kontekstual-estetik va diskursiv tahlil metodi. Badiiy matnda har qanday lakuna alohida yashamaydi, balki muayyan bir gap, dialog yoki mikromatn ichida o‘zining haqiqiy lingvomadaniy imkoniyatini na-

moyon etadi. Ushbu metod orqali lakunalarning asar personajlari nutqini individuallashtirishdagi, tarixiy davr ruhini yaratishdagi hamda matn osti ma'nolarini shakllantirishdagi estetik vazifalari ochib berildi;

–tizimli-sistem va maydon nazariyasi metodi. Asardan aniqlangan barcha birlamchi lakunalar til tizimidagi o'rni va vazifasiga ko'ra tartibsiz to'plam emas, balki muayyan qonuniyatlarga bo'ysunuvchi mikrotizimlar ekanligi asoslandi. Lakunalar o'zaro semantik va tematik yaqinligiga ko'ra, to'rtta yirik lingvomadaniy maydonga (davlatchilik, harbiy san'at, etnografik-maishiy va diniy-marosim maydonlar) ajratildi va ularning ichki strukturaviy aloqalari o'rganildi.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etildi:

I bosqich. Tarixiy proza leksikasi, o'zbek tili tarixiy taraqqiyoti va til nazariyasida lakunallik muammosiga oid nazariy manbalar o'rganildi; empirik materiallar to'plandi.

II bosqich. Tanlab olingan lakunallik holatlari matn ichidagi funksional-uslubiy bo'yog'iga ko'ra tasniflandi; ularning lingvomadaniy tabiati ilmiy izohlandi.

III bosqich. Olingan natijalar tizimlashtirilib, ularning til nazariyasi uchun xulosalari shakllantirildi va jadval ko'rinishida modellashtirildi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining xolisligi, ishonchliligi va yuqori ilmiy aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Muhammad Alining "Ulug' saltanat" epopeyasi matnini tizimli-sistem tahlil qilish jarayonida ma'lum bo'ldiki, tarixiy proza diskursida qo'llangan lingvomadaniy lakunalar shunchaki eskilik parchalari emas. Balki ular matn ichida o'ta kuchli semantik-pragmatik yukni va estetik vazifani bajaruvchi, boshqa tillarga to'g'ridan to'g'ri o'girib bo'lmaydigan madaniy-kognitiv kodlardir. Asardan aniqlangan lakunalar til nazariyasi qoliplari asosida to'rtta asosiy mikrotizimga (lingvomadaniy maydonga) ajratildi. Quyida ularning matn ichidagi konnotativ bo'yog'i va lisoniy tabiati tahlil qilinadi.

I. Davlatchilik va ijtimoiy-siyosiy lakunalar. Temuriylar davri davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlarini ifodalovchi birliklar o'zbek lisoniy dunyo manzarasining fundamental poydevorini tashkil qiladi. Masalan, asar diskursida faol qo'llangan "yasoq" yoki "yasoq boshi" birliklari chet tillariga, ko'pincha, shunchaki *"qonun"* yoki *"qonun ijrochisi"* deb yuzaki tarjima qilinadi. Biroq til nazariyasi aspektida bu birlik mutlaq lingvomadaniy lakunadir. Chunki o'zbek tafakkurida va tarixiy matn tarkibida "yasoq" oddiy huquqiy hujjat emas, balki Chingizxon va Amir Temur an'analariga sodiqlikni, buzib bo'lmas va qat'iy davlat nizomini ifodalaydi.

Asardan olingan ushbu parchaga e'tibor qarataylik: *"Sohibqiron farmon berdi: har kimki yasoqni buzsa, uning boshiga saltanatning tig'i tushur!"* Bu yerda "yasoq" so'zi matn ichida dahshat, mutloq itoatkorlik va davlat qudrati kabi o'ta kuchli emotsional-ekspressiv bo'yoq yuklangan.

Shuningdek, ijtimoiy, oilaviy va tabaqaviy munosabatlar tizimini aks ettirishda milliy boshpana hamda turargoh turlarini ifodalovchi leksik qatlam alohida o'rin tutadi. Muallif badiiy nutqda an'anaviy turkiy boshpana nomlarining o'zbek tili lisoniy dunyo manzarasidagi nozik konnotativ semalaridan unumli foydalangan. Asar diskursida qo'llangan "shohchodir", "Oq uy" va "olachuq" birliklari boshqa lisoniy madaniyatlarga o'girilganda o'ziga xos etnomadaniy va funksional lakunallikni yuzaga keltirib chiqaradi. Chunki ularning har biri matn tarkibida muayyan ijtimoiy-axloqiy va marosimy munosabatlarni tartibga soluvchi lisoniy belgi vazifasini o'taydi.

Asar matnida hukmdor oilasining ichki muhiti va o'zaro muomala qoidalarini yoritishda "shohchodir" birligi muhim lisoniy vazifa bajaradi. Bu o'rinda mazkur so'z shunchaki jismoniy joyni emas, balki shaxsni va rasmiy munosabatlar muloqotini muvozanatda saqlovchi etnik-ijtimoiy chegarani anglatadi. E'tibor berilsa, matnda Amir Temur va malika munosabatlari fonida ushbu birlikning qo'llanilishi oilaviy muloqotda ham hukmdorlik maqomi va saroy etiketining saqlanishini ko'rsatadi: *"Hozir ham malika shohchodir ichida ekan, Amir Temur holatidagi o'zgarishlarni payqadi-yu, chiqib keldi va hech qanday so'z qo'shmay, sohibining oliy farmoniga muntazir joriya misoli sokin o'ltirdi."*

Lisoniy tahlil shuni ko'rsatadiki, bu lisoniy vaziyatda "shohchodir" birligi matn muhitida o'ziga xos funksional yuk tashimoqda. Chodir ichidagi malika holati va undan chiqib kelayotgan hukmdor o'rtasidagi sukunat davrning yuqori tabaqaga xos ichki muloqot madaniyatini, ya'ni so'zsiz anglashish, sadoqat va o'zaro izzat me'yorlarini ifodalaydi. Xorijiy tillarga shunchaki "royal tent" deb o'girilganda, ushbu birlik tarkibidagi oilaviy-saroy etiketiga xos bo'lgan etnolingvistik sema va milliy muomala madaniyati in'ikosi yo'qolib, matnda lisoniy bo'shliq yuzaga keladi.

Bundan farqli o'laroq, to'y marosimi va oilaviy quvonch tasvirlangan lisoniy vaziyatda "Oq uy" tushunchasi muhrlanadi. O'zbek xalqining etnik tafakkurida "Oq uy" shunchaki me'moriy tuzilish emas,

balki kelin-kuyovlar, yangi oila kodi, oq rangning muqaddasligi, shodlik va poklik ramzidir. Muallif ushbu etnomadaniy kodni badiiy matnga uzviy singdiradi: *Kelin-kuyovlar uchun bo'y cho'zgan Oq uy bamisoli butun o'lanzorni to'ldirib turar, uy ichini bezagan la'l-u dur, zar-u zabarjadlar lovullab ko'zni olardi.*

Jumladagi "Oq uy" birligi o'zining marosimy va semantik valentligi orqali o'zbek to'y an'analarining milliy-falsafiy mohiyatini aks ettiradi. Ushbu tushuncha boshqa tillarga to'g'ridan to'g'ri "white house" deb tarjima qilinganda, matndagi oilaviy va marosimy madniyatga xos mazmun butunlay yo'qoladi va lisoniy-madaniy bo'shliq shakllanadi.

Asar matnida harbiy askarlar, oddiy mehmonlar yoki muvaqqat yo'lovchilar turar joyi uchun "olachuq" birligi kiritilgan. Etnografik va leksik jihatdan olachuq – chayla, kapa, kigiz yoki shox-shabbadan qilingan vaqtinchalik kamtarona boshpana ma'nosini anglatadi. Muallif ushbu birlik yordamida matnda makon xususiyati va masofa muloqotini yuzaga keltirgan: *"Temurbekning chodiri dalaning o'rtasidagi tepalik yerda savlat to'kib turardi... Yuz qadamcha narida, shimol tomonda olachuqlardan birida horib-tolgan mehmonlar dasturxon atrofida cho'kka tushib tamaddi qilishardi. Abbos-bahodir ularning to'rt nafar ekanini ko'rdi".*

Ushbu lisoniy vaziyat til nazariyasi aspektida g'oyat xarakterlidir. Bu yerda shunchaki ikki boshpananing moddiy ko'rinishi qarama-qarshi qo'yilmayapti, balki masofaviy makon (yuz qadamcha narida, shimol tomonda joylashishi) orqali personajlarning maishiy mavqeyi va muloqot doirasi lisoniy chegaralab berilmoqda. "Olachuq" so'zi matn muhitida kamtarlik, muvaqqatlik va oddiylik konnotatsiyasini tashimoqda.

II. Harbiy-taktik va strategik lakunalar. Eski o'zbek tilida harbiy san'at o'ta mukammal tizimga ega bo'lgani bois, uning terminologiyasi bugungi kun o'zbek tili va boshqa tillar uchun chuqur konseptual lakunallik hosil qiladi. Bunga yorqin misol sifatida "chovush" va "turg'oq" birliklarini keltirish mumkin.

Chovush – an'anaviy talqinlarda shunchaki *"jarchi"* deb keltiriladi. Biroq "Ulug' saltanat" diskursida chovushlar qo'shinning oldi qismida yurib, askarlarning jangovar kayfiyatini va ruhiy tayyorgarligini kuchaytiruvchi, dushmanning yuragiga vahima soluvchi maxsus unvonli harbiy shaxslardir. Matnda ularning hayqirig'i va harakati jang shiddatini ta'minlovchi estetik vositaga aylanadi.

Turg'oq – shunchaki *"soqchilik"* emas, balki tunda hukmdor chodiri atrofida o'ta maxfiy va qat'iy tartib bilan olib boriladigan, o'ziga xos o'ron (parol)lar tizimiga ega bo'lgan harbiy-xavfsizlik makonidir.

Matn tahlili: *"Turg'oqda turgan yigitlar chovushlarning uzoqdan kelayotgan sadosidan hushyor tortdilar".*

Ushbu jumlada har ikkala lakuna bir-biri bilan valentlik aloqasiga kirishib, matnda temuriylar harbiy intizomining mukammalligini va voqealar rivojidagi sirli, xavotirli uslubiy bo'yoqni yuzaga keltirmoqda.

III. Etnografik va madaniy-maishiy lakunalar. Xalqning o'tmishdagi turmush tarzi, urf-odatlari va ot-ulov madaniyati bilan bog'liq so'zlar tarixiy roman leksikasining eng salmoqli qismini tashkil etadi. Ma'lumki, o'zbek dostonchilik maktabida ot shunchaki ulov emas, balki qahramonning yaqin yo'ldoshi hamda uning sha'ni ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ot anjomlarining har biri o'zbek tili lisoniy dunyo manzarasida alohida ma'no-mazmun kasb etadi va boshqa tillarda to'g'ridan to'g'ri muqobiliga ega bo'lmagan tushunchaviy bo'shliqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romani matnida ana shunday milliy o'ziga xosliklar xalqning jangovar hayoti fonida aniq tasvirlangan.

Asarda Amir Temurning tulpori tasvirlangan lisoniy vaziyatda etnik xarakterga ega bo'lgan so'zlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda keladi:

"Amir Temur Xono'g'lonning birinchi sohibi bo'ldi. Samarqandda sinchilar tulporni ilk marta abzallab, tilla qoshli egar urdilar, o'n sakkiz qubbali chig'atoy pushtan, tagi ipak, nurqali pishiq ayil tortdilar, kumush yugan taqdilar. Ikki yonida ikki tilla uzangi yaraqlardi...".

Ushbu badiiy parchada tilga olingan ot anjomlarining qo'llanish xususiyatlari til nazariyasi nuqtayi nazaridan diqqatga sazovordir. Masalan, matn tarkibidagi "abzallab" va "tilla qoshli egar urdilar" birikmalari tarixiy matnda shunchaki moddiy buyum ifodasi emas, balki an'anaviy turkiy davlatchilik hamda harbiy tizimda otning safarga va jangga qay darajada shay qilinganini ko'rsatuvchi muhim belgidir.

Ushbu anjomlar zanjirida kelayotgan "ayil" (egarni otning qorniga mahkamlab bog'laydigan pishiq qayish) so'zi esa kontekstda jangovar holatdagi jiddiylik va hayotiy mustahkamlikni ifodalaydi. Xalq tilida *"otga ayil botganini egar bilmas, ot bilar"* iborasining faol qo'llanishi ham ushbu birlikning o'zbek etnik tafakkuridagi o'rnini ko'rsatadi. Matndagi *"tagi ipak, nurqali pishiq ayil tortdilar"* ifodasi orqali jonivorning g'oyat asralganini va egasi uchun qadrli ekanini anglash mumkin.

Shu bilan birga, egar ustidan tortiladigan maxsus bezakli matoni ifodalovchi "pushtan" (o'n sakkiz qubbali chig'atoy pushtan) birligi hamda *"kumush yugan taqdilar, ikki yonida ikki tilla uzangi yaraqlardi"*

tasviri badiiy tasvir ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Ot anjomlarining oltin va kumush kabi nodir metallar bilan bezatilishi, ularga alohida qubbalar o'rnatilishi qahramonning – Amir Temurning jamiyatdagi eng yuqori ijtimoiy-siyosiy mavqeyini, hukmdorlik qudratini va davlat boshlig'i sifatidagi maqomini ochiq ko'rsatadi.

Yana bir muhim lakuna "sarpo" (sarpoy) konseptidir. G'arb madaniyatida bu shunchaki *"sovg'a qilingan kiyim"* (gift clothing) deb talqin qilinishi mumkin. Biroq Muhammad Ali nasrida sarpoy berish marosimi bu sadoqatni qabul qilish, iymonlashish (o'zaro ishonch), shohning marhamati va e'tirofini ifodalovchi murakkab jaroyondir: *"Xon uning yelkasiga zardo'zi sarpoy yopdi, bu shunchaki mato emas, balki kelgusi sadoqatning ahdnamosi edi"*. Bu yerda sarpoy birligi matnda shaxsiy munosabatlarning rasmiylashishi va qahramonning jamiyatdagi mavqeyi keskin ko'tarilganini ko'rsatuvchi ijtimoiy-madaniy ramziy bo'yoq kasb etmoqda.

IV. Diniy-marosim va etiket lakunalar. Tarixiy davr ijtimoiy muhitida islomiy qadriyatlar va an'anaviy etnik muloqot odobining uzviy uyg'unligi matn tarkibida o'ziga xos diniy-marosimiy tushunchalarni yuzaga keltirgan. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romani matnida bunday birliklar shunchaki diniy qarashlar ifodasi emas, balki qahramonlarning ijtimoiy muloqot tizimini boshqaruvchi muhim vosita hisoblanadi. Masalan, matn muhitida faol qo'llangan "fotiha" yoki "duoixayr" birliklari g'arb tillariga "blessing" deb o'girilsa-da, matndagi mantiqiy ma'no qirralarini to'liq ochib bera olmaydi va tarjimada etnomadaniy lakunallikni keltirib chiqaradi.

Asarda muhim ijtimoiy tadbir-tantana, jang va safarga shaylanish arafasidagi ijtimoiy muloqot jarayonida mazkur marosimiy lakunaning lisoniy xususiyatlari aniq namoyon bo'ladi:

"Chorsu maydoniga jo'nashga fotiha o'qilgach, amirlar panjara gulchin so'ridan apil-tapil pastga tushib, ikki tarafda qo'l qovushtirib turdilar. Temurbek Piri murshidga yo'l berdi, ammo Mir Sayyid Baraka tasbeh tutgan o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, chetga chiqdi: – Biz rozi... Amir Sohibqiron! O'tsunlar!..– Qulluq! – dedi Temurbek va otlarga qarab yurdi".

Ushbu lisoniy vaziyatda "fotiha" birligi marosimiy matnni o'qish harakatini anglatmaydi, balki amalga oshirilishi kutilayotgan davlat ahamiyatiga molik yirik harbiy-siyosiy ishning boshlanishiga rasmiy va ruhiy ruxsat berish marosimi hisoblanadi. Asar dialoglarida ota yoki pir tomonidan berilgan fotiha bu safarning muvaffaqiyati va o'zaro ahdlashuv ko'rinishidir. Badiiy parchada fotiha o'qilishi bilan muloqot muhiti va qahramonlar harakati butunlay o'zgaradi. Amirlar darhol pastga tushib, qo'l qovushtirib turadilar, bu esa marosimiy tartibning jamiyatdagi yuksak o'rnini ko'rsatadi.

Marosimning davomi va bevosita nutqiy matni tasvirlangan navbatdagi sahna esa so'zning amaliy kuchi va ta'sir doirasini yanada chuqurroq yoritadi:

"Keyin qo'llarini ochib haq taolo haqiga, rasulullo hazratlari va uning avlodlari ruhlariga, chor-yor-u sahobalarga salavot o'qib dedi: – Ilohi, Amir Sohibqiron manglaylarini yorug' qilg'il, adolat-u dini islom xizmati yo'lida o'zing madadkor bo'lg'il! Omin! Hamma suronli "Omin!"–deya duoga qo'l ochdi: – Allohu akbar!"

Lingvomadaniy nuqtayi nazaridan, ushbu lisoniy vaziyat o'zbek marosimiy nutq etiketining to'liq modelini namoyon etadi. Duoning boshlanishidagi salavotlar qismi muloqotning muqaddas an'analarga bog'liqligini ko'rsatsa, *"Amir Sohibqiron manglaylarini yorug' qilg'il"* shaklidagi tilak matndagi ijtimoiy-siyosiy hamda harbiy vazifaning naqadar mas'uliyatli ekanini lisoniy dalillaydi.

Eng xarakterli jihati, pirning duosidan so'ng atrofda yig'ilgan barcha amirlar va askarlarning "suronli "Omin!" deya jamoaviy javob berishidir. Ushbu "suronli Omin" sadosi matn muhitida oddiygina diniy hayqiriq emas, balki qo'shinning va amirlarning hukmdor atrofida jipslashganini, boshlanayotgan harakatga hamma birdek rozilik berib, mas'uliyatni bo'yniga olganini ifodalovchi yuksak ijtimoiy-psixologik va pragmatik mantiqqa ega.

Bunday birliklar matnda qahramonlarning ruhiy dunyosini, ularning ichki e'tiqod darajasini va har bir muhim ishni milliy-diniy qadriyatlar bilan boshlashga bo'lgan ehtiyojini bosiq ilmiy ohangda yoritib beradi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan birlamchi lakunalarning til tizimidagi va matndagi o'rni quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

T/r	Lingvomadaniy maydon nomi	Lakunalar	Matndagi konnotativ (uslubiy) bo'yog'i	Boshqa tillardagi holati (Lakunallik turi)
1	Davlatchilik va unvonlar	yasoq, yasoq boshi, shohchodir, Oq uy, olachuq	Mutloq hokimiyat, daxlsizlik, ijtimoiy boshqaruv bo'yog'i	Konseptual mutlaq lakuna

2	Harbiy-taktik tizim	chovush, turg‘oq	Jangovar shiddat, harbiy intizom va xavfsizlik ruhi	Funksional nisbiy lakuna
3	Etnografik va maishiy	sarpo, abzal, ayil, yugan	Milliy etiket, mehmondo‘stlik, shaxsiy qadriyat bo‘yog‘i	Etnografik mutlaq lakuna
4	Diniy-marosim va etiket	fotiha, duoyixayr	Ilohiy himoya, ruhiy sadoqat, taqdir in’ikosi	Konseptual va uslubiy lakuna

Xulosa va takliflar (conclusion/recommendations). Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” epopeyasi matnida lingvomadaniy lakunallik hodisasini til nazariyasi aspektida tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental ilmiy xulosalarga kelindi:

–tarixiy proza matnidagi lakunalar shunchaki iste’moldan chiqqan arxaizm yoki istorizmlar emas, balki muayyan bir davr (Temuriylar davri) va milliy etnosning lisoniy dunyo manzarasini, ijtimoiy-madaniy kodlarini o‘zida saqlovchi va matn tuzilishini shakllantiruvchi kognitiv-tushunchaviy birliklar hisoblanadi;

–asar diskursidan aniqlangan lakunalar tartibsiz leksik to‘plam bo‘lmay, balki til tizimida mikrotizimlarni (davlatchilik, harbiy-taktik, etnografik va diniy-marosim maydonlarni) hosil qilishi asoslandi. Bu maydonlar badiiy matn ichida o‘zaro valentlik aloqalariga kirishib, asarning umumiy lingvomadaniy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Matn tarkibi bilan bog‘liq va konnotativ tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yasoq, turg‘oq, chovush, sarpo kabi birlamchi lakunalar badiiy jumlalar ichida shunchaki axborot tashuvchi vazifasini bajarmaydi. Ular personajlar muloqotida mutloq hokimiyat, ijtimoiy hamjamiyat, jangovar shiddat va milliy etiket kabi yuqori emotsional-ekspressiv va estetik uslubiy bo‘yoqlarni ta’minlaydi. Tarixiy asarlar tarkibidagi lisoniy bo‘shliqlarni tadqiq etish o‘zbek tili so‘z xazinasining tarixiy taraqqiyot dinamikasini hamda til va milliy mentalitet munosabatlarining asosiy tamoyillarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Kelgusida o‘zbek tarixiy prozasidagi lingvomadaniy lakunalarning to‘liq elektron tezaurus-lug‘atlarini yaratish hamda ularni kompyuter lingvistikasi qoliplariga solib, milliy korpus bazasiga integratsiya qilish amaliy tilshunoslik uchun istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Roman-epopeya. Toshkent, “Sharq”, 2013, 640-bet.

(2). Мунен Ж., Винай Ж., Дарбельне Ж. Вопросы теории перевода и сопоставительной лингвистики. Москва, “Прогресс”, 1980, с. 45–48.

(3). Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю. Текст и культура: Проблемы межкультурного общения. Москва, “Наука”, 1989, с. 87–91.

(4). Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3-jild, Toshkent, “Akademnashr”, 2012, 44–46-betlar.

(5). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1978, 18–22-betlar.

(6). Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 2012, 5-son, 3–16-betlar.

(7). Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография, Тошкент, “Фан”, 2013, 112–115-betlar.

Abduqaxxorov Sardorbek Akramjon o‘g‘li (Andijon davlat Chet tillari instituti dotsenti;
e-mail: sardorbek.akramovich@gmail.com)

O‘ZBEK TILI ENSIKLOPEDIK KORPUSINING LINGVISTIK ARXITEKTURASI VA METHONTOLOGY ASOSIDA KONSEPTUAL ONTOLOGIYANI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tili ensiklopedik korpusining klassik lingvistik korpusdan farqlanuvchi ko‘p qatlamli lingvistik arxitekturasi nazariy jihatdan asoslangan. Korpusning markaziy birligi token yoki gap emas, balki bilim bloki, maqola va soha-moduli ekanligi ko‘rsatilgan. Methontology metodologiyasi asosida konseptual ontologiyani shakllantirishning ketma-ket bosqichlari – spetsifikatsiya, konseptuallashtirish, formalizatsiya, implementatsiya, baholash va hujjatlashtirish – ishlab chiqilgan. Bilim sohalarining UO‘K asosida taqsimlanishi va kross-soha aloqalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ensiklopedik korpus, lingvistik arxitektura, methontology, konseptual ontologiya, annotatsiya, UO‘K, OWL/RDF.*